O‘QITUVCHILAR UCHUN ILMIY-IJODIY FAOLIYATNI RAG‘BATLANTIRISH STRATEGIYALARI

Risqulova Z.,
GDPI magistranti
Email: yusupovaziyoda2001@gmail.com

Annotatsiya: ushbu tezisda o‘qituvchilarning ilmiy-ijodiy faoliyatini rag‘batlantirishning asosiy strategiyalari tahlil qilinadi. O‘qituvchining ilmiy-ijodiy faoliyati nafaqat uning shaxsiy rivojlanishiga, balki ta’lim tizimining sifatini oshirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-ijodiy faoliyat, o‘qituvchi, rag‘batlantirish strategiyalari, pedagogik muhit, shart-sharoitlar, metodik yondashuvlar, psixologik motivatsiya.

Аннотация: в данном тезисах анализируются основные стратегии стимулирования научной и творческой деятельности учителей. Научно-творческая деятельность учителя оказывает прямое влияние не только на его личностное развитие, но и на повышение качества системы образования.

Ключевые слова: Научно-творческая деятельность, учитель, стратегии поощрения, педагогическая среда, условия, методические подходы, психологическая мотивация.

Abstract: this article analyzes the main strategies for encouraging teachers' scientific and creative activities. A teacher’s scientific and creative work has a direct impact not only on their personal development but also on improving the quality of the education system.

Keywords: scientific and creative activity, teacher, encouragement strategies, pedagogical environment, conditions, methodological approaches, psychological motivation.

O‘qituvchining ilmiy-ijodiy faoliyati ta’lim tizimining sifatini oshirish, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, o‘quvchilarga sifatli ta’lim berishning muhim omilidir. Ilmiy-ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini ta’minlash, uning motivatsiyasini oshirish va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarurdir. [1]

Ilmiy-ijodiy faoliyat o‘qituvchining o‘z faniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va tatbiq etishda yordam beradi. Bu faoliyat o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirish, o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish imkonini yaratadi. Ilmiy-ijodiy faoliyatning asosiy shakllari: ilmiy maqolalar yozish, metodik qo‘llanmalar tayyorlash, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliy tadqiqotlar o‘tkazishdir. [2]

Ilmiy-ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish uchun quyidagi metodik yondashuvlar qo‘llanilishi mumkin. Pedagogik innovatsiyalarni joriy etish: yangi ta’lim texnologiyalarini o‘qituvchilarga tanishtirish va ularni amaliyotda qo‘llashga rag‘batlantirish. Ilmiy-ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan malaka oshirish dasturlari: o‘qituvchilarga ilmiy-ijodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan kurslar va treninglar tashkil etish. Ilmiy-ijodiy faoliyatni baholash tizimini ishlab chiqish: o‘qituvchilarning ilmiy-ijodiy faoliyatini baholash uchun aniq mezonlar va ko‘rsatkichlarni belgilash.

O‘qituvchilarning ilmiy-ijodiy faoliyatini rag‘batlantirishda psixologik motivatsiya muhim rol o‘ynaydi. [3]

O‘qituvchilarga ilmiy-ijodiy faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun quyidagi psixologik omillarni hisobga olish zarur: Ichki motivatsiya: o‘qituvchining o‘z faniga bo‘lgan qiziqishi va bilim olishga bo‘lgan intilishi, ilmiy-ijodiy faoliyatda erishilgan natijalar uchun mukofotlar va rag‘batlantirishlar. O‘z-o‘zini baholash: o‘qituvchining o‘z ilmiy-ijodiy faoliyatini baholash va o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishi.

Ilmiy-ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish uchun quyidagi tashkiliy shart-sharoitlar zarur. Ilmiy-ijodiy markazlarning tashkil etilishi: o‘qituvchilar uchun ilmiy-ijodiy faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi markazlar va laboratoriyalar tashkil etish. Ilmiy-ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilma: ilmiy-ijodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan adabiyotlar, elektron resurslar va boshqa materiallarni taqdim etish. Hamkorlik va tajriba almashish: o‘qituvchilar o‘rtasida ilmiy-ijodiy faoliyat bo‘yicha tajriba almashish va hamkorlikni rivojlantirish. Amerikada o‘qituvchilarning ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirish uchun universitetlar va maktablar o‘rtasida professional learning communities (PLC) — ya’ni “kasbiy o‘quv jamoalari” tashkil etiladi.[4] Bu guruhlar orqali o‘qituvchilar muntazam tarzda ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanadi, o‘z tajribalarini baham ko‘radi, innovatsiyalarni amaliyotga joriy qiladi.

Finlandiyada ilmiy-ijodiy faoliyat ta’lim tizimining markaziy qismidir. Har bir o‘qituvchi universitet bilan bog‘langan holda ilmiy-amaliy izlanishlar olib boradi. Ular grantlar asosida tadqiqotlar yuritishadi va o‘z fani bo‘yicha maqolalar tayyorlashga majburiy tarzda jalb qilinadi. [5]

Buyuk Britaniyada “action research” — ya’ni amaliy tadqiqot metodi keng qo‘llaniladi. O‘qituvchilar o‘z faoliyatidagi real muammolar ustida ilmiy tahlil olib borib, uni metodik jihatdan takomillashtirishga harakat qiladi. [6]

O‘qituvchilarning ilmiy-ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish ta’lim tizimining sifatini oshirish, o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish va ta’lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun metodik, psixologik va tashkiliy jihatlarni hisobga olish zarur.

O‘qituvchilarning ilmiy-ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan strategiyalar ta’lim tizimining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripov, Z.T. (2024). Bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. FarDU ilmiy xabarlari, 30(3), 46. Retrieved from https://journal.fdu.

2. Тошпўлатова Г. (2024). Илғор технологиялардан фойдаланиш — фанлар ўқитиш сифатини ошириш омили. Жамият ва инновациялар, 5(2), 415–420.

3. Samatova, D.Y., & qizi Yusupova, Z.I. (2025). Ta’limda innovatsion yondashuvlarning ijodiy qobiliyatlarga ta’siri. *Innovative development in educational activities*, *4*(1), 186-193.

4. Samatova, D.Y., & qizi Yusupova, Z.I. (2025). Yoshlarning ilmiy-ijodiy faolligini oshirishda motivatsiya va qiziqishning roli. *Innovative Development in Educational Activities*, *4*(1), 194-201.

5. Yusupova, Z.I.Q. (2023). O‘qitish jarayonida ta’lim-tarbiyaning ahamiyati. *Academic research in educational sciences*, *5*(NUU conference 3), 176-181.

6. Smatillaevna, J.M., Ziyoda, Y., & Mokhinur, E. (2023). Technologies for development of pedagogical skills of future teachers in the pedagogical education system.

TARBIYA JARAYONIDA TEATR PEDAGOGIKASI ELEMENTLARINING O‘RNI

Po‘latova O., GulDPI magistranti
obida.pulatova1993@gmail.com

Anotatsiya: tezisda pedagogik faoliyatda teatr elementlaridan foydalanishning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Teatrning didaktik va estetik jihatdan ta’siri, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijodiy tafakkurini shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, tarbiya jarayonida teatr texnikalari va dramatik sahnalashtirish usullarining amaliy qo‘llanilishi misollar orqali asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: teatr elementlari, pedagogik faoliyat, tarbiya, estetik ta’sir, ijodiy tafakkur.

Аннотация: В тезисах рассматриваются воспитательные возможности использования театральных элементов в педагогической деятельности. Анализируется дидактическое и эстетическое влияние театра, раскрывается его роль в формировании личности учащихся и развитии их творческого мышления. Также приводятся примеры практического применения театральных техник и методов драматизации в образовательном процессе.

Ключевые слова: театральные элементы, педагогическая деятельность, воспитание, эстетическое воздействие, творческое мышление.

Annotation: This article analyzes the educational potential of using theatrical elements in pedagogical practice. It explores the didactic and aesthetic impact of theatre on students, emphasizing its role in developing personal growth and creative thinking. The paper also provides examples of how theatrical techniques and dramatization methods can be applied effectively in educational settings.

Keywords: theatrical elements, pedagogical activity, education, aesthetic impact, creative thinking.

Zamonaviy ta'lim o‘zida nafaqat bilimlarni uzatishni, balki shaxsiyatni shakllantirishni, uning ruhiy dunyosini rivojlantirishni ham talab etadi. Shuning uchun pedagogning vazifasi faqat ilmiy bilimlarni yetkazib berish emas, balki o‘quvchilarni tarbiyalash, ularning ijodiy fikrlash, emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashdir. Bu maqsadda pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlarni izlashning ahamiyati ortib bormoqda. Bunday yondashuvlardan biri, ta'lim jarayoniga teatr elementlarini qo‘shish orqali amalga oshirilmoqda.Teatr, o‘zining estetik va kommunikativ imkoniyatlari bilan shaxsga kompleks ta'sir ko‘rsatadi. U nutqni, tasavvurni, empatiya va o‘ziga ishonchni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, teatr o‘quvchilarni jamoada ishlash ko‘nikmalariga ham o‘rgatadi.

Teatr metodlarini ta'lim jarayoniga kiritish, tarbiya jarayonini jonli, tasavvurni o‘stiruvchi va samarali qilishga yordam beradi.Ushbu maqola teatr usullarining pedagogik faoliyatda qo‘llanilishi imkoniyatlarini ko‘rib chiqishga, ularning tarbiyaviy jarayonga ta'sirini o‘rganishga va shaxsni muvozanatli rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslashga qaratilgan. Zamonaviy ta'limda tarbiya jarayoni faqat bilimlarni uzatish emas, balki shaxsni kompleks ravishda rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayon ijodkorlikdan iborat bo‘lib, u pedagogning ta'lim faoliyatida o‘zining ijodiy qobiliyatlarini amaliyotga tatbiq etishda namoyon bo‘ladi. Tarbiyachining ijodkorligi uning shaxsiy xususiyatlari va pedagogik faoliyatdagi uslublariga bog‘liq bo‘lib, ijodiy fikrlarni amalga oshirishda u o‘zining yondashuvlarini va metodlarini ishlab chiqadi. Pedagogik faoliyatda ijodkorlik vositalari va pedagogning shaxsiyati bir-biri bilan uyg‘unlashib, ta'lim jarayonini yanada samararali qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 26-maydagi «Madaniyat va san'at sohasi jamiyat hayotidagi o‘rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-600-sonli Farmoni teatr san'atining rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi. Teatr faoliyatining ta'lim jarayonida qo‘llanilishi yoshlarni ma'naviy va ruhiy jihatdan tarbiyalashda samarali vosita sifatida foydalanilmoqda. Teatr orqali pedagog bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot, hissiyotlar almashinuvi va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Shuningdek, pedagogning ijodiy faoliyati teatr asarlari orqali yoshlarni shakllantirish, ularni o‘zligini anglash va boshqalar bilan hamkorlik qilishga o‘rgatish imkonini yaratadi.

Ta'lim jarayonida teatrning ta'siri, pedagogik g‘oyalar va badiiy ijodning o‘zaro bog‘liqligi ta'limning samaradorligini oshiradi. Teatr san'ati pedagogik faoliyatga tatbiq etilayotganida, o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning o‘zini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish va estetik didini shakllantirish maqsadida turli usul va metodlardan foydalaniladi.

1. **Teatr elementlari va o‘quv jarayonidagi roli**. Teatr elementlari, xususan, dramatik va badiiy yondashuvlar, o‘quvchilarning shaxsiy qarashlarini rivojlantirishda muhim vositadir. Ular orqali talabalar nafaqat o‘z ichki dunyosini anglashadi, balki o‘zlarini boshqalar bilan taqqoslab, guruhda ishlash va kollektiv fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradilar. Pedagoglar turli rollar orqali o‘quvchilarni o‘zlarining fikr va his-tuyg‘ularini erkin ifoda etishga undaydi.

2. **Didaktik ta'sir va o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri**. Teatrning didaktik ta'siri o‘quvchilarda yangi bilim va ko‘nikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Teatr

jarayonida o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri shakllanadi, ular real hayotdagi holatlarni drama shaklida ifodalab, chuqur tahlil qilishni o‘rganadilar. Bunda pedagogik metodlar, masalan, rol o‘ynash, dramatizatsiya, va improvizatsiya kabi usullar o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglashiga va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.

3. **Estetik va emosional ta'sir**. Teatrning estetik ta'siri orqali o‘quvchilar nafaqat badiiy asarlarni tushunishga, balki estetik didni rivojlantirishga ham o‘rganadilar. Teatr va san'atning emosional jihatlari o‘quvchilarda jozibali va go‘zal narsalarga nisbatan qiziqish uyg‘otadi, ularni his-tuyg‘ular va fikrlar almashish jarayonida o‘zini namoyon etishga undaydi.

4. **Pedagogik va estetik maqsadlar**. Teatrning pedagogik maqsadi o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, estetik va ijodiy tafakkurining shakllanishiga qaratilgan bo‘lib, badiiy tafakkur orqali tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga xizmat qiladi. Bunda pedagogning o‘zi teatr elementlarini qanday qo‘llashi, o‘quvchilarga qanday yo‘l-yo‘riq berishi, va pedagogik g‘oyalarni qaysi metodik yondashuvlar bilan amaliyotga tatbiq etishi juda muhimdir.

Teatr texnikalari va dramatik sahnalashtirish usullari pedagogik jarayonda ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu usullar o‘quvchilarni nafaqat didaktik va estetik jihatdan, balki emotsional va psixologik jihatdan ham tarbiyalashga yordam beradi. Quyida tarbiya jarayonida teatr texnikalari va dramatik sahnalashtirish usullarining amaliy qo‘llanilishiga oid misollarni keltirib o‘tamiz.

1. **Dramatizatsiya (Sahnalashtirish).** O‘quvchilarga turli adabiy asarlarni sahnalashtirish orqali pedagoglar ularda o‘qigan matnni tushunishni chuqurlashtiradi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Misol uchun, o‘quvchilar roman yoki she’rni o‘qib, uni sahnada ko‘rsatishlari mumkin. Bunda ularni turli rollar orqali ifodalashga undash, ular o‘z his-tuyg‘ularini, fikrlarini sahnada aniq ifoda etishga harakat qilishadi. Bu jarayon orqali bolalar nafaqat nutq madaniyatini rivojlantiradilar, balki turli his-tuyg‘ularni, o‘zgaruvchan sharoitlarni anglab, o‘z ichki olamini ham tushunadilar. **Misol**: "Alisher Navoiy"ning "Xamsa" asarini sahnalashtirish. O‘quvchilar har bir rolni o‘ziga xos tarzda ifoda etish uchun o‘z tasavvurlarini ishlatadilar va shu orqali matnni yanada chuqurroq tushunishadi. Bunday sahnalashtirish o‘quvchilarga didaktik nuqtai nazardan ham, estetik nuqtai nazardan ham foydalidir.

2. **Improvizatsiya (Erkin sahnalashtirish).** Improvizatsiya – bu o‘quvchilarga ma'lum bir tema yoki vaziyat asosida, tayyorlanmasdan, sahnada erkin harakat qilish imkoniyatini berishdir. Bu usul o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularni yangi g‘oyalar yaratishga undaydi. Improvizatsiya orqali o‘quvchilar o‘zlarini yanada erkin va xolis his qiladilar, bu esa pedagogik ta’sirni kuchaytiradi. **Misol**: "O‘zingizni biror bir hayotiy vaziyatda qanday tutardingiz?" degan savolni berib, o‘quvchilardan improvizatsion sahna yaratishni so‘rish. Masalan, ular fursatdan foydalanib, hayotiy vaziyatlarni aks ettirish orqali o‘z fikrlarini erkin ifoda etadilar. Bu jarayon o‘quvchilarda kritikal fikrlashni va muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantiradi.

3. **Rol o‘ynash (Dramatik roldagi o‘yinlar).** Rol o‘ynash o‘quvchilarga turli xarakterlarni o‘zlashtirishga imkon beradi. Bu usul orqali o‘quvchilar shaxsiy tajriba orttirishadi, o‘zlariga tanish bo‘lmagan rollarda ham o‘zini namoyon eta olishadi. Bu jarayon pedagogik ta’sirni kuchaytirib, o‘quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Misol: O‘quvchilarga o‘qilgan she’r yoki hikoya asosida turli rollarni o‘ynashni taklif qilish. Masalan, o‘quvchilar "Mehnat" yoki "Do‘stlik" mavzusidagi hikoya asosida asosiy qahramonlarni o‘ynashlari mumkin. Bu usul o‘quvchilarga nafaqat drama, balki tasavvur qilish va boshqalarni tushunish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

4. **Dramatik tahlil.** O‘quvchilarni dramatik tahlil qilishga o‘rgatish, ularning voqea va voqealar orasidagi bog‘liqlikni tushunishlariga yordam beradi. Bu usul o‘quvchilarning analitik fikrlashini rivojlantiradi va ular har qanday voqeani o‘z nuqtai nazaridan tahlil qilishga o‘rgatadi. Dramatik tahlil metodida o‘quvchilar turli dramatik asarlarni, hikoyalarni va sahnalarni tahlil qilib, har bir xarakterning hissiyotlarini, harakatlarini va motivlarini anglashadi. **Misol**: O‘quvchilarga "Hamlet" pyesasidan bir sahnani tanlab, uni tahlil qilishni taklif etish. Har bir o‘quvchi bu sahnada ishtirok etgan xarakterlar hissiyotlarini va ular orasidagi munosabatlarni tahlil qilishadi. Bunday tahlil metodikasi o‘quvchilarga o‘ylash va fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

5. Teatrning estetik jihatlari. Pedagogik jarayonda teatr texnikalari estetik ta’sir orqali o‘quvchilarda badiiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadi. Teatrning estetik elementlari, masalan, musiqalar, dekoratsiyalar, yoritish, o‘quvchilarning ruhiyatiga ta’sir qilib, ularni yanada kreativ va sezgir qiladi. Misol: O‘quvchilarga biror bir drama yoki pyesadan kichik sahnani sahnalashtirishni taklif qilish, bunda musiqani, yoritishni va dekoratsiyani ham qo‘shish. Bu usul o‘quvchilarga badiiy tafakkur va estetik didni rivojlantirishga yordam beradi.

Yuqoridagi misollar orqali teatr texnikalari va dramatik sahnalashtirish usullari pedagogik jarayonda o‘quvchilarning ijodiy va shaxsiy rivojlanishiga qanday ta’sir qilishi ko‘rsatilgan. Bu usullar nafaqat o‘quvchilarning aqliy va hissiy rivojlanishiga xizmat qiladi, balki ularda boshqalar bilan ishlash, jamoada faoliyat yuritish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Xulosa qilib aytganda, pedagogik faoliyatda teatr elementlaridan foydalanish tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning shaxsiy, emotsional va ijodiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Teatr texnikalari, dramatik sahnalashtirish usullari va rol o‘ynash metodlari orqali o‘quvchilar nafaqat didaktik maqsadlarga erishadilar, balki ularning ijodiy tafakkuri va kritik fikrlash qobiliyati ham rivojlanadi. Teatrning estetik va didaktik jihatlari o‘quvchilarga voqea va xarakterlarni chuqurroq tushunishga, hissiyotlarini ifoda etishga, shuningdek, o‘zlarini yaratishda va boshqalarni tushunishda yordam beradi. Pedagoglar uchun teatr elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyati o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini va guruhdagi o‘zaro munosabatlarni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu usullar o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, ular bilan samarali ishlash, o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri va aniq ifoda etish imkoniyatlarini yaratadi.

Shuningdek, teatr san’ati tarbiyaviy jarayonning ilg‘or vositasi sifatida o‘quvchilarda estetik did va madaniyatni shakllantiradi. Shu bilan birga, teatr va pedagogika o‘rtasidagi integratsiya har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini kengaytiradi, ularning ijodiy potensialini kashf etishga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, pedagogik faoliyatda teatrning ahamiyatini yanada oshiradi va kelajakda ta’lim tizimida uning o‘rni yanada mustahkamlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdusamatov Hafiz: «Drama nazariyasi» - G‘afur G'ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent - 2000.

2. Mirziyoyev Sh. «Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-600 sonli Farmoni. - T., 2020.

3. Kabilov N. Teatr pedagogikasining bola tarbiyasida tutgan o‘rni. Журнал. Oriental Art and Culture. 2023

4. Рафиқова Д., Азимов У. Таълимни модернизациялаш ва таълим сифатини ошириш //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2 (81). – С. 167-169.